

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI TALABA VA O'QUVCHILARNING
MA'NAVIY YUKSALISHIGA KO'MAKLASHISH MARKAZI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI
YOSHLAR ISHLARI AGENTLIGI TOSHKENT SHAHAR BOSHQARMASI
O'ZBEKISTON YOSHLAR ITTIFOQI
TOSHKENT SHAHAR HUDUDIIY KENGASHI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI INVESTITSIYALAR, SAVDO VA SANOAT
VAZIRLIGI O'ZBEKISTON TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH AGENTLIGI
RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR KENGASHI**

“SIFATLI TA'LIM – TARAQQIYOT POYDEVORI”

**mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy
konferensiya to'plami**

2023-yil 20-aprel

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINING TAYANCH KOMPETENSIYALARI

Nasimova Nasiba Qurbon qizi

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kompetentsiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotda tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan axloqiy me'yor va qadriyatlarini o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, "Men" obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi va rivojlantiradi. Buni hisobga olib kompetentli bola tarbiyalash uchun davlatimiz rahbari tomonidan har qanday sharoitlar yaratilgan. Zamonaviy binolar, ko'rgazmali qurollar, didaktik o'yinlar tashkil qilish uchun kerakli ashyolar bilan barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'minlandi desak mubog'ala bo'lmaydi. Xususan, chekka hududda joylashgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari yangidan qurilib, zamonaviy usulda ta'mirlandi. Qanchadan qancha mablag' sarflandi va buning evaziga bolalar uchun ajoyib va o'zini erkin his qiladigan shart-sharoitlar yaratildi. Boshlang'ich muhim kompetentsiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab qiladi.

671

Sifatli ta'lim - taraqqiyot poydevori

Kompetentsiya bolaning bilim, ko'nikma, malaka, va qadriyatlarimajmuidir. Boshlang'ich kompetentsiyalar, rivojlanish sohasidan qat'i nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bolaning har qanday vaziyatda ham o'zini erkin his qilgan holda fikrini ochiq bayon qiladigan ko'nikmalarni shakllantiradi. Atrofdagilar bilan yaxshi munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetentsiyalari.

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish)
- Bilish

Kommunikativ kompetensiya- atrofdagi odamlar bilan o'zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo'lishini taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o'yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati. Bu kompetensiyaga nutqni rivojlantirish ham kiradi. Nutq bolaning dunyoni bilishi va rivojlanishi uchun zaur omil bo'lib xizmat qiladi. Boshqalar bilan munosabat qurish uchun, jamoa bilan birgalikda ishlash uchun, o'zgalar fikrini tinglashi va tushunishi va o'zini namoyon qilishi uchun albatta nutq shakllangan bo'lishi kerak. Ular aytilganlarni tushunish uchun tinglaydilar va kuzatadilar, savol va topshiriqlarni eshitadilar va shunga mos javob berishadi. Ular nutqni, ayniqsa o'qish va yozishni o'z ichiga olgan mashg'ulotlarga ijobiy qarashadi. Bu kompetensiya, shuningdek axborot olish uchun turli xil axborot vositalaridan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Nutq bolaning kamoloti uchun ham asosiy o'rin egallaydi. Bolaning ta'lim olishi va rivojlanishi uchun kerakli manbalarini qidirish va topilgan ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyatini ham shakllantiradi. Qachonki bola tinglashni bilsagina u to'g'ri ang'ay oladi va unga javobni ham hech ikkalanmay aniq javob beradi. U kompetensiya bilan o'z ichiga olgan bilimlarga ega bo'lishiga, mashg'ulotlarni o'rganishga, o'z ichiga olgan bilimlarni jamoa bilan ishlashga o'rgatadi va tarbiyalaydi.

Önceki

ileri

Ijtimoiy kompetensiya- bu bolaning belgilangan tartib va odob-axloq qoidalariga rioya qilgan holda tengdoshlari va kattalar bilan birgalikda ishlash qobiliyatidir. Bolaning o'rab turgan atrof muhiti uning rivojlanishi va o'sishi uchun katta ahamiyatga ega. Bolalar o'zidan kattalarni hurmat qilishi va ularning aytganlarini hisobga olishni o'rganadilar. Barcha guruhlarda tabiiyki o'zining alohida tartib qoidalari mavjud bolalar shu qoidalariga bo'ysungan holda barcha xulq-atvor qoidalariga amal qiladilar. Har qanday muammoli vaziyatlarga to'g'ru baho berishga va o'zini boshqarishga o'rgatadi. Bola o'z huquqlarini hamda majburiyatlari borligini tushunadilar. Dunyoning xilma-xil rangdan iborat ekanligini tan oladilar.

Shaxsiy kompetensiya ("Men" konsepsiyasini yaratish). Shaxsiy kompetensiyani rivojlantirish orqali bola maktabgacha yoshda shakllanadigan va

butun hayoti davomida takomillashib boradigan bir qator xususiyatlarni namoyish etadi. Bu kompetensiya bolaning o'ziga g'amxo'rlik qilishga va sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yishga o'rgatadi. Shuningdek, boshqalarning faravonligi haqida g'amxo'rlik qilishga o'rganadilar. O'zining yaxshi ko'rgan narsasi, qiziqishlari, his-tuyg'ulari bilan o'rtoqlashadi, o'z salomatligi uchun mas'uliyatni namoyon qiladi.

Bilish kompetensiyasi bilim olish, o'qish va o'rganish, mustaqil ravishda izlanish, tahlil qilish va atrof - olamni tushunish uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ular o'zlarining kashfiyotlari bilan o'rtoqlashadi va asta-sekin mustaqil, o'z-o'zini boshqaradigan, tahlil qila oladilar va ijodkor shaxsga aylanadilar. Bu bolaga o'ziga ishonch va samimiyat hissini beradi. Bunday qobiliyatli bola ijodkor shaxs sifatida barkamol avlod bo'lib shakllanadi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, rqaiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Ilk qadam" Davlat ta'lim dasturiga 3-ilova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv.

2. F.R.Qodirova, Sh.Q-Toshpulatova, N.M.Kayumova, M.NA'zamova. "Maktabgacha pedagogika" darslik / - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. -688 b